



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-1, 2026**

Civil-Legal criteria for determining liability limits of electronic payment operators in Uzbekistan

Madrimova Lobar Anvarbek kizi

Tashkent state university of Law Master’s degree student in Cyber law

E.mail: madrimovalobar26@gmail.com

Abstract: This thesis analyzes the issues of establishing civil-legal liability boundaries for electronic payment operators functioning within the e-commerce and financial system of the Republic of Uzbekistan. In the course of the research, the norms of the Law “On Payments and Payment Systems” and the Civil Code were studied comparatively alongside international legal instruments, specifically the European Union’s PSD2 Directive and UNCITRAL model laws. The thesis highlights the contractual and tort (non-contractual) liability of operators, the presumption of guilt in this field, damage limitation mechanisms, and the criteria for distributing liability in the event of unauthorized payments. As a result of the conducted analysis, legal gaps in current national legislation were identified. Consequently, scientific-legal proposals and recommendations were put forward regarding the implementation of “Strong Customer Authentication” (SCA) standards and establishing the legal status of electronic transaction data (log-files) as a means of evidence in court.

Keywords: *electronic payment operator, civil-legal liability, payment system, e-commerce, damage compensation, PSD2, Strong Customer Authentication (SCA), contractual obligation, Uzbekistan legislation.*

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi O‘zbekiston Respublikasining elektron tijorat va moliya tizimida faoliyat yurituvchi elektron to‘lov operatorlarining fuqarolik-huquqiy javobgarlik chegaralarini belgilash masalalari tahlil etiladi. Tadqiqot jarayonida



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-1, 2026**

“To‘lovlar va to‘lov tizimlari to‘g‘risida”gi Qonun va Fuqarolik kodeksi normalari, shuningdek, xalqaro huquqiy hujjatlar — Yevropa Ittifoqining PSD2 Direktivi va UNCITRAL model qonunlari qiyosiy o‘rganilgan. Tezida operatorlarning shartnomaviy va delikt javobgarligi, sohadagi aybdorlik prezumpsiyasi, zarar miqdorini cheklash mexanizmlari hamda ruxsat etilmagan to‘lovlar vaqtida javobgarlikni taqsimlash mezonlari yoritib berilgan. O‘tkazilgan tahlillar natijasida amaldagi milliy qonunchilikdagi huquqiy bo‘shliqlar aniqlanib, “kuchli mijoz autentifikatsiyasi” (SCA) standartlarini joriy etish va elektron tranzaksiya ma‘lumotlarining sudda isbotlash vositasi sifatidagi maqomini belgilash bo‘yicha ilmiy-huquqiy taklif va tavsiyalar ilgari surilgan

Kalit so‘zlar:*elektron to‘lov operatori, fuqarolik-huquqiy javobgarlik, to‘lov tizimi, elektron tijorat, zarar qoplash, PSD2, kuchli mijoz autentifikatsiyasi (SCA), shartnomaviy majburiyat, O‘zbekiston qonunchiligi*

Bugungi kunda global miqyosda raqamli transformatsiya jarayonlari moliya tizimining ajralmas qismiga aylandi. O‘zbekiston Respublikasida ham raqamli iqtisodiyotni jadal rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilanib, bu borada 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi doirasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizda so‘nggi yillarda Click, Payme, Uzum kabi fintech platformalarining faoliyati kengayishi va milliy to‘lov tizimlarining (UzCard, Humo) kundalik hayotga chuqur kirib borishi jismoniy va yuridik shaxslar o‘rtasidagi iqtisodiy muomalani yangi sifat bosqichiga ko‘tardi. Markaziy bank ma‘lumotlariga ko‘ra, 2024-yil yakuni bilan umumiy to‘lovlar hajmining qariyb 84 foizi elektron shaklda bajarilgani ushbu sohaning



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO’NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-1, 2026**

naqadar ulkan salohiyatga ega ekanligidan dalolat beradi.¹ Elektron to’lov xizmatlarining ommalashishi bilan bir qatorda, ularning xavfsizligini ta’minlash va ishtirokchilar o’rtasidagi huquqiy munosabatlarni tartibga solish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, raqamli iqtisodiyot sharoitida elektron hamyonlar, mobil ilovalar va internet-banking orqali amalga oshirilayotgan tranzaksiyalar hajmi ortishi kibernetika xavfsizlikka oid yangi tahdidlarni, jumladan, fishing (phishing), zararli dasturiy ta’minotlar va ruxsatsiz to’lovlarni keltirib chiqarmoqda. Bunday sharoitda elektron to’lov tizimi operatorlari va to’lov tashkilotlarining fuqarolik-huquqiy maqomi hamda ularning javobgarlik chegaralari masalasi qonunchiligimizda eng ko’p muhokama qilinadigan mavzulardan biriga aylandi. O’zbekiston Respublikasining 2019-yil 1-noyabrdagi "To’lovlar va to’lov tizimlari to’g’risida"gi O’RQ-578-sonli Qonuni (bundan buyon -To’lovlar to’g’risidagi qonun) sohadagi munosabatlarni tartibga soluvchi asosiy huquqiy hujjat hisoblanadi. Mazkur qonun to’lov tizimi operatori va to’lov tashkiloti tushunchalarini farqlab, ularning faoliyatini litsenziyalash va nazorat qilish tartibini belgilab bergan. Biroq, amaldagi qonunchilikda tranzaksiya xatosi, texnik nosozlik yoki ma’lumotlar sizib chiqishi natijasida mijozlarga yetkazilgan zararining o’rnini qoplash bo’yicha javobgarlikning aniq fuqarolik-huquqiy mezonlari, ya’ni javobgarlikning hajmi va chegaralari yetarli darajada ochiqlanmagan.

Hozirgi vaqtda elektron to’lov operatorlari va foydalanuvchilar o’rtasidagi nizolar asosan Fuqarolik kodeksining umumiy normalari, xususan, majburiyatlarni buzganlik uchun javobgarlik (333-modda) va zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar (985-modda) doirasida ko’rib chiqilmoqda. Lekin raqamli tranzaksiyalarning o’ziga xos texnik xususiyatlari, uchinchi shaxslarning aralashuvi va

¹ **Dilmurodov Jurabek Ulug’bek o’g’li.** Blokcheyn texnologiyasi asosida milliy to’lov tizimini samarali boshqarish modeli // Journal of Scientific Research, Modern Views and Innovations. – 2025. – Vol. 2. – October



**"ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO'NALISHLARI" nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-1, 2026**

elektron dalillarning maqomi ushbu soha uchun maxsus "javobgarlik chegaralari" (liability limits) mexanizmini joriy etishni taqozo etmoqda. Foydalanuvchilar ko'pincha operatorning aybini isbotlashda qiyinchiliklarga duch kelishmoqda, bu esa aybdorlik prezumpsiyasi va isbotlash yuki masalasini qayta ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatadi.

Shuningdek, xalqaro tajriba, xususan, Yevropa Ittifoqining PSD2 Direktivi kabi ilg'or standartlar to'lov operatorlarining javobgarligini "kuchli mijoz autentifikatsiyasi" (SCA) tamoyili asosida belgilashni taklif etadi. O'zbekiston sharoitida ham elektron to'lov operatorlarining javobgarligini cheklash yoki kengaytirish mezonlarini ishlab chiqish nafaqat iste'molchilar huquqlarini himoya qilishga, balki butun raqamli moliya infratuzilmasining barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi - O'zbekiston qonunchiligi doirasida elektron to'lov operatorlarining fuqarolik-huquqiy javobgarligi mezonlarini nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilish, mavjud huquqiy bo'shliqlarni aniqlash hamda xalqaro standartlar asosida ushbu sohani takomillashtirish bo'yicha ilmiy takliflar ishlab chiqishdan iborat. Maqolada operatorlarning shartnomaviy va delikt javobgarligi, zarar qoplash miqdorini cheklash asoslari hamda isbotlash jarayonidagi muammolar qiyosiy-huquqiy metodlar yordamida o'rganiladi.

Mavzuning asosiy mazmuniga o'tishdan oldin avvalo, tolov tizimi, elektron to'lov operatorlarining huquqiy maqomlriga to'xtalib o'tsak. To'lov tizimi O'zbekiston Respublikasida bir nechta qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi. Elektron to'lov tizimi (ETT)-operator, tizim ishtirokchilari (banklar) va to'lov tashkilotlari o'rtasidagi to'lovlarni belgilangan tartib-taomillar, infratuzilma va qoidalar asosida amalga oshirishni ta'minlovchi huquqiy munosabatlar majmuidir. Ushbu tizimning markaziy subyekti bo'lgan **to'lov tizimi operatori** (masalan, UzCard, Humo) tizim ishlashini ta'minlovchi, uning qoidalarini belgilovchi va axborot xavfsizligi ustidan nazoratni



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO’NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-1, 2026**

amalga oshiruvchi yuridik shaxsdir. To’lov tizimi operatori -bu O’zbekiston Respublikasi hududida to’lov tizimining ishlashini ta’minlash bo’yicha faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxsdir. Operator tizimning markaziy subyekti bo’lib, quyidagi muhim vazifalarni bajaradi:

- To’lov tizimining qoidalarini belgilaydi va ishtirokchilar tomonidan ushbu qoidalarga rioya etilishini nazorat qiladi
- Tizimning texnik infratuzilmasi ishlab turishini ta’minlaydi
- Ishtirokchilar o’rtasida to’lovga va axborotga doir xabarlarga ishlov beradi (protsessing) hamda kliringni amalga oshiradi
- Axborot xavfsizligi va kiberxavfsizlik talablariga rioya etilishini ta’minlaydi.

Operator sifatida ham banklar, ham bank bo’lmagan yuridik shaxslar faoliyat yuritishi mumkin, biroq buning uchun Markaziy bankning maxsus litsenziyasi talab etiladi. Masalan, O’zbekistonda UzCard va Humo kabi tizimlar milliy to’lov tizimi operatorlari hisoblanadi. **To’lov tashkilotlari** (Click, Payme, Uzun) esa bank hisoblanmagan, ammo tegishli litsenziya asosida to’lov xizmatlarini ko’rsatuvchi subyektlar sanaladi. Fuqarolik-huquqiy tahlilda operator va **emitent** (Markaziy bank va tijorat banklari) o’rtasidagi huquqiy farqni aniqlash muhim ahamiyatga ega. **Elektron pullar** emitentning elektron shaklda saqlanadigan shartsiz va chaqirib olinmaydigan pul majburiyati bo’lsa, operator faqatgina tizimning texnik-texnologik yaxlitligi va tranzaksiyalarning qayta ishlanishi uchun mas’ul bo’ladi. Manbalar tahlili shuni ko’rsatadiki, amaldagi qonunchilikda tranzaksiya xatolari, texnik nosozliklar yoki kiberhujumlar natijasida yetkazilgan zararni qoplash bo’yicha operatorlarning "javobgarlik chegaralari" yetarli darajada aniqlashtirilmagan. Shu sababli, blokcheyn kabi markazlashmagan texnologiyalarni joriy etish orqali real vaqtli monitoring va audit



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-1, 2026**

izlarining yaxlitligini ta‘minlash, operatorlarning fuqarolik-huquqiy javobgarligini differentsiatsiyalashda yangi mezon bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

O‘zbekistonda elektron to‘lov operatorlarining fuqarolik-huquqiy javobgarligi "To‘lovlar va to‘lov tizimlari to‘g‘risida"gi Qonun (O‘RQ-578) va Fuqarolik kodeksi (FK) normalari bilan tartibga solinadi. Mazkur Qonunning 58-moddasiga ko‘ra, to‘lov xizmatlarini yetkazib beruvchi to‘lovlarni amalga oshirish muddatlarini buzgan taqdirda, har bir kechiktirilgan kun uchun summaning **0,1 foizi miqdorida (ammo jami 10 foizdan oshmagan holda)** penya to‘lashi shart.² Shuningdek, operator aybi bilan to‘lov noto‘g‘ri bajarilsa, u mablag‘ni zudlik bilan qaytarishi yoki oluvchining hisobvarag‘iga o‘tkazishi lozim. Fuqarolik-huquqiy jihatdan operator va foydalanuvchi o‘rtasidagi munosabatlar haq evaziga xizmat ko‘rsatish shartnomasi (FK 703-710-moddalar) doirasida ko‘riladi. FKning 333-moddasiga asosan, operator majburiyatni lozim darajada bajarmaslik natijasida yetkazilgan haqiqiy zarar va boy berilgan foyda uchun to‘liq moddiy javobgarlikni o‘z zimmasiga oladi.³ Biroq, xalqaro huquqiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, amaldagi Fuqarolik kodeksining 795-moddasida banklarning to‘lov topshiriqnomalarini bajarmaslikdagi javobgarligi raqamli iqtisodiyot talablariga to‘liq mos kelmaydi. Ushbu norma banklarning javobgarligini faqat FK 327-moddasidagi foizlar bilan cheklab qo‘yishi mumkin, bu esa mijozlarga yetkazilgan real zararni qoplashda yetarli emas.⁴ **Ruxsat etilmagan to‘lovlar** uchun javobgarlikni taqsimlashda kiberxavfsizlik choralari hal qiluvchi mezon hisoblanadi. O‘RQ-578 Qonunining 56-moddasiga ko‘ra, agar ruxsat etilmagan to‘lov mijozning firibgarlik

² O‘zbekiston Respublikasining “To‘lovlar va to‘lov tizimlari to‘g‘risida”gi 01.11.2019 yildagi O‘RQ-578-son Qonuni. <https://lex.uz/docs/-4575786>

³ O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolik kodeksi” 01.03.1997yil. <https://lex.uz/docs/180552>

⁴ **Yuldashev Shadiyor Shuxrat o‘g‘li, Torebaev Mirbek Po‘latbay o‘g‘li.** Onlayn tranzaksiyalar xavfsizligi: zamonaviy tahdidlar va ularning yechimlari // “Zamonaviy Taraqqiyot va Fan: 21-asr Yondashuvlari” ilmiy-amaliy anjuman materiallari



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-1, 2026**

harakatlari yoki o‘z identifikatsiyalash vositalarini (parol, OTP kod) himoya qilmaganligi oqibatida sodir bo‘lsa, zarar uchun **tashabbuskor (mijoz) javobgar bo‘ladi**. Aksincha, operator tizim xavfsizligini ta‘minlamasa yoki "kuchli mijoz autentifikatsiyasi" (SCA) talablariga rioya qilmasa, javobgarlik to‘liq operatorida qoladi. Xalqaro tajriba, xususan, Yevropa Ittifoqining **PSD2 Direktivi** operatorlarning javobgarligini qat‘iy belgilash va foydalanuvchilar huquqlarini himoya qilishning ilg‘or modelini taklif etadi. O‘zbekiston qonunchiligida ham aybdorlik prezumpsiyasi amal qilib, zarar yetkazgan operator o‘z tizimining xavfsizligini isbotlashi shart (FK 14-modda). Shunga qaramay, amaliyotda elektron dalillarning (log-fayllar) maqomini aniq belgilash dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda elektron to‘lovlar infratuzilmasi jadal rivojlanayotgan bo‘lsa-da, amaldagi qonunchilikda operatorlarning fuqarolik-huquqiy javobgarlik chegaralari va zarar qoplash mezonlari yetarli darajada aniqlashtirilmagan. Xususan, amaldagi Fuqarolik kodeksining 795-moddasi raqamli tranzaksiyalarning texnik o‘ziga xosliklarini to‘liq qamrab olmaydi va banklarning javobgarligini cheklangan tarzda belgilaydi. Shaxsiy xulosamga ko‘ra, sohadagi huquqiy noaniqlikni bartaraf etish uchun Yevropa Ittifoqining PSD2 Direktivi kabi ilg‘or standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish zarur. "Kuchli mijoz autentifikatsiyasi" (SCA) tamoyilini joriy etish operatorlarning kiberxavfsizlik uchun mas‘uliyatini kuchaytiradi va texnik nosozliklar vaqtida isbotlash yuki masalasini iste‘molchilar foydasiga hal qilishga yordam beradi. Shuningdek, blokcheyn texnologiyasi asosidagi raqamli tizimlarni tatbiq etish tranzaksiyalarning shaffofligini va audit izlarining o‘zgartirilmasligini ta‘minlash orqali nizoli vaziyatlarda asosiy dalil bo‘lib xizmat qiladi. Yakuniy tavsiya sifatida, "To‘lovlar va to‘lov tizimlari to‘g‘risida"gi Qonunga operatorlarning ruxsatsiz tranzaksiyalar bo‘yicha maksimal javobgarlik miqdorini va



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-1, 2026**

mijozlarga kompensatsiya to‘lashning aniq mexanizmlarini belgilovchi maxsus normalar kiritish maqsadga muvofiqdir. Ushbu islohotlar nafaqat fuqarolarning mulkiy huquqlarini samarali himoya qiladi, balki mamlakatda raqamli moliya tizimiga bo‘lgan ishonchni yangi bosqichga olib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining 1997-yil 1-martdagi Fuqarolik kodeksi// O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlar milliy bazasi. <https://lex.uz/docs/-180552>
2. O‘zbekiston Respublikasining “To‘lovlar va to‘lov tizimlari to‘g‘risida”gi Qonuni. 01.11.2019-yildagi O‘RQ-578-son <https://lex.uz/docs/-4575786>
3. To‘lov tizimi operatorlari va to‘lov tashkilotlari faoliyatini litsenziyalash tartibi to‘g‘risidagi nizom. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining qarori (Ro‘yxat raqami 3431, 05.05.2023-y.) <https://lex.uz/uz/docs/-6461366>
4. Directive (EU) 2015/2366 of the European Parliament and of the Council of 25 November 2015 on payment services in the internal market (PSD2)
5. Idrisheva S.K. Электронные платежи и электронные деньги: правовые основы и отдельные коллизии в правовом понимании терминов // Журнал зарубежного законодательства и сравнительного правоведения. – 2021. – Т. 17. – № 1
6. Yuldashev Shadiyor Shuxrat o‘g‘li, Torebaev Mirbek Po‘latbay o‘g‘li. Onlayn tranzaksiyalar xavfsizligi: zamonaviy tahdidlar va ularning yechimlari // “Zamonaviy Taraqqiyot va Fan: 21-asr Yondashuvlari” ilmiy-amaliy anjuman materiallari